

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH.**

*Toshkent viloyati Angren Shahar MMTBga qarashli 35-umumiy o'rta ta'limgak maktabi boshlang'ich sinfo qituvchisi  
Jumayeva Komila Ergashovna*

**Annotatsiya:** Mavzuga oid materiallar asosida o'quvchilarni fanga qiziqtirish. Kompozitsiya haqida tushuncha berib otish hamda "savatda mevalar" mavzusida kompozitsiya yasash orqali o'quvchilarni mehnatga qiziqtirish, qobiliyatlarini rivojlantirish.

**Kalit sózlar:** Mevalar, ish qurollari, savat, kompozitsiya, mehnat, qobilyat.

Ta'lilda pedagogik texnologiyalar, axborot kommunikatsiyalari, elektron darsliklar, multemedialarni keng joriy qilish haqida, shu bilan birga, o'qituvchilarning mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish to'g'risida 1-prezidentimiz I.Karimov alohida to'xtalib o'tganlar. Bu bilan ta'limgiz tizimida takomillashish va rivojlanish bosqichiga o'tildi. O'qituvchi o'zining bilimi, salohiyati, kasbiy mahorati bilan bir qatorda, darsda yangicha interfaol usullardan ham foydalana bilishi lozim.

Nega deganda, buning bir necha sabablari bor:

- O'qituvchi va o'quvchilarning muloqotga kirisha olish qobiliyatini shakllantirish;
- Faoliytni oshirish;
- O'quvchilarning tashabbuskorligiga yo'l ochish;
- Jamoa bo'lib ishslash ko'nikmasini rivojlantirish;
- O'quvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish;
- Ijodiy va erkin fikrlashga o'rgatish.

Yuqoridagilar ,albatta, o'qituvchi tashkil qilgan interfaol darslarda o'z tasdig'ini topadi.

Interfaol o'zi nima ? Uning darslarda qo'llanishidan maqsad -chi?

Avvalambor, shu savollarga yechim topamiz .

Interfaol, interaktiv – inglizchadan olingan bo'lib , “inter”-bu “o'zaro , akt –“harakat , ta'sir , faollik degan ma'nolarni anglatadi.

Interfaol usullardan darsda foydalanish esa , darsning samaradorligi , sifati va yaxshi tushunilishiga olib keladi.

Interfaollik –bu o'zaro 2 kishi faolligini talab qiladi. Ya'ni o'qituvchi va o'quvchi faolligini .

Uning bosh maqsadi esa, o'quv jarayoniga qaynoq atmosfera olib kirish,darsga va fanga qiziqtirish, o'quvchilarning qobiliyatlarini o'rganishdan iboratdir .

Ayniqsa, bunday metodlardan foydalanib dars o'tish , boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda muhim . Chunki bolalar tabiatan o'yin qaroq.

Biz ularni birdaniga ko'p topshiriqlar , o'qish , yozish bilan siylayversak, darsdan ko'nglini sovutgan bo'lamiz .

Bolajonlarni darsga qiziqtirishning ajoyib usullaridan biri - interfaol metodlardan foydalanish . Bu orqali o'quvchilarda o'zaro do'stona , jamoaviy ahillik paydo bo'lib , bilim olishga havas ortadi.

Endi boshlang'ich sinflarida ona tili fanida interfaol usullardan qanday foydalanish kerakligi haqida qisqacha tavsiya berib o'tamiz.

\*\*\*\*\*

## I METOD

### “RANGLI FONUSCHALAR ”O‘YINI TA’RIFI:

O'qituvchi mavzuni o'rganish vaqtida mavzu yuzasidan savol va javoblar tayyorlaydi . Va doskaga yoziladi . Savolni o'ylash uchun 1 daqiqa vaqt beriladi.

Keyin fikr to‘g‘ri bo’lsa :

Yoki xato bo’lsa :

Shu fonuschalarni ko‘rsatishadi.

**FOYDALANISH O’RNI :**

Hamma darslarda , mustahkamlash maqsadida o’tkaziladi.

**QULAYLIKHLARI:**

Bu mashq orqali barcha o’quvchilar fikri tinglanadi. Hech kim darsda e’tibordan chetda qolib , oddiy tomoshabin bo’lib o’tirmaydi .Fikrni dalillash , asoslash qobiliyati shakllanadi.

**QIYINCHILIKHLARI :**

Vaqt berilgani bois, bolalarning fikrlarida chalkashliklar va ikkilanishlar keltirib chiqarishi mumkin.

**TAVSIYA:**

Mashq o’tkazish uchun barcha resurlar puxtalik bilan tayyorlanishi lozim. Faqatgina mustahkamlash darslarida foydalansa maqsadga muvofiqdir. Masalan, o’quvchilar ona tili darsida so’z turkumlari mavzusini mustahkamlash maqsadida quyidagi ma’lumotlarni tasdiqlashadi , yoki qizil fonus orqali tasdiqlashmaydi.

- “Ot “ so’z turkumi “Kim?”, “ Nima ?” so’roqlariga javob bo’ladi . (to’g’ri)


- “Fe’l” so’z turkumi kelishiklar bilan turlanadi. (xato)

- “ Sifat” so’z turkumi “ nechta?” so’rog’ini oladi .( xato)

Xuddi shu tartibda bu metoddan foydalanishadi.

**“Juft barmoqchalar”**

**TAVSIYA:** Ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan samarali metodlardan biridir. Mazkur metodning nomi bolada uni bajarishga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Metodni darsning turli bosqichlarida qo'llash mumkin. Masalan, ona tili darslarida son mavzusini uyga vazifa sifatida berishda foydalanish samaralidir. "Juft barmoqchalar" metodi ona tili va amaliy san'atning integratsiyasini o'zida aks ettiradi. Metodning qo'llanilishida o'quvchilarning barmoqlari ishlataladi. Bunda, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga qo'l mehnati yordamida o'ng qo'l barmoqlariga sonlar va hisob so'zlarni yozishni tushuntiradi, chap qo'l barmoqlariga esa miqdori ko'rsatilgan shaxsnarsalarning rasmlarini chizish kerakligi va oxirgi bosqichda ikki qo'l barmoqlarini qovushtirganda, son va miqdori ko'rsatilgan narsa o'rtaida muvofiqlik hosil bo'lishi ta'kidlanadi. O'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan "Juft barmoqchalar" namuna sifatida ko'rsatiladi va tasvir orqali tushuntiriladi: chap qo'l ko'rsatkich barmog'iga 2 soni hamda hisob so'z yozilgan qog'ozchalar yopishtirilgan, o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'iga esa piyozning rasmi chizilgan. Ikki barmoqni juftlashtirganimizda "Ikki bosh piyoz" degan so'z hosil bo'ladi. Shunday davom etgan holda qolgan barmoqlarimizga ham rasmlarni chizamiz va sonlarni yozamiz.



### **1-rasm. “Juft barmoqchalar” metodi**

“Juft barmoqchalar” metodi orqali bolalarda quyidagi bilim, ko‘nikma, malakalar va sifatlar shakllanadi:

1. o‘quvchining estetik didi shakllanadi, ijodiy fikrlashi ortadi, badiiy san’at va rassomchilikka bo‘lgan qiziqishi oshadi;
2. o‘quvchining qo‘l matorikalari rivojlangan holda uning intelektual fikrlash qobiliyati shakllanadi;
3. o‘qituvchi jamoasini darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni faollikka chorlash bilan bir qatorda mavzuni qay darajada tushunishganligini bilib oladi;
4. o‘quvchida ona tili fani bilan bir qatorda matematika, rasm va texnologiya faniga bo‘lgan qiziqish ortadi. Chunki, o‘quvchi “Juft barmoqchalar” ni yasash jarayonida rasmni chizadi, kesadi va hisob-kitob qilib barmoqlarida tasvirlaydi.

### **“Davom ettir” metodi**

Bunda birinchi guruh óz savatidagi kompozitsiyasini ta'riflaydi. Har bir guruhdan 2 tadan o‘quvchi chiqib fikrni izchil davom ettiradi. Masalan:

1-guruh rasmi orqali tushuntirish berib o’taman.



**Birinchi o‘quvchi:** Savatda turli -tuman noz - nematlar bisyor.

**Ikkinci o‘quvchi:** Bejirim idishlardagi mevalar ishtahani beixtiyor qitiqlaydi....

Xuddi shunday izchillik asosida matnlar hosil bo'ladi.

Oxirida xulosa o‘rnida "Tezkor savol-javob " metodini qo'llash samaralidir.

### **“Tezkor savol-javob ” metodi**

Ushbu metoddan nafaqat texnologiyada , balki boshqa fanlarda ham foydalansa bo'ladi. Mavzumiz savatda mevalar kompozitsiyasi bo'lganligi uchun mevalarga oid munozaralar qo'llansa mavzuning o'rgаниш doirasi kengayadi.

Masalan:

- \* Temir moddasida boy meva bu? **Javob:** Olma
- \* Kichkina dekcha , ichi to'la mixcha. **Javob:** Anor

XULOSA :

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki , axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotgan bir paytda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi texnika va texnologiyani chuqur bilishi , tahlil qila olishi va yangilik yarata olishi juda muhim. Buning uchun darsni tashkil etish jarayonida barcha o'quvchilarga tushunarli, oson va qiziqarli bo'lgan usullarni tanlashi va qo'llay olishi , ko'rgazmali qurollardan foydalanishi , yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tatbiq qilishi , ta'lim oluvchilarni ijodiy, mustaqil ishlashga undashi , pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va unumli foydalanishi kerak .